



UDK: 327(575.1:581.8)

Mohidil NIZAMOVA,
O‘qituvchi-stajyor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Dilnura ISTAMOVA,
Talaba, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
E-mail: dilnuraistamova9@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-2319-6968>

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti dotsenti PhD Z.Usmanov taqrizi asosida

AFGHANISTAN'S GEOSTRATEGIC IMPACT ON UZBEKISTAN: ANALYSIS OF SECURITY THREATS AND GEO-ECONOMIC OPPORTUNITIES

Annotation

This article analyzes the relations between Uzbekistan and Afghanistan and their influence on each other. In addition, the security threats that these countries may pose to each other, as well as geoeconomic opportunities, are discussed.

Keywords: Strategic security, buffer zone, terrorism, extremism, drug trafficking, NATO, ISIS, UNODC.

ГЕОСТРАТЕГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ АФГАНИСТАНА НА УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ УГРОЗ БЕЗОПАСНОСТИ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Аннотация

В данной статье анализируются отношения между Узбекистаном и Афганистаном и их взаимное влияние. Кроме того, рассматриваются угрозы безопасности, которые эти страны могут представлять друг для друга, а также геоэкономические возможности.

Ключевые слова: Стратегическая безопасность, буферная зона, терроризм, экстремизм, незаконный оборот наркотиков, НАТО, ИГИЛ, Управление ООН по наркотикам и преступности (UNODC).

AFG‘ONISTONNING O‘ZBEKISTONGA GEOSTRATEGIK TA‘SIRI: XAVFSIZLIK TAHDIDLARI VA GEOIQTISODIY IMKONIYATLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston va Afg‘oniston munosabatlari hamda bu ikki davlatning bir-biriga ta‘siri tahlil qilinadi. Bundan tashqari, bu davlatlarning bir-biri uchun yaratishi mumkin bo‘lgan xavfsizlik tahdidlari bilan bir qatorda geoiqtisodiy imkoniyatlar ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Strategik xavfsizlik, bufer zona, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, NATO, ISIS, UNODC.

Kirish. Bugungi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida mintaqaviy xavfsizlik va geoiqtisodiy integratsiya masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo tutashgan hududda joylashgan Afg‘oniston mintaqaviy barqarorlik, xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy geosiyosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston uchun Afg‘oniston bilan munosabatlar nafaqat qo‘shnichilik aloqalari, balki strategik xavfsizlik va taraqqiyot masalasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi davrda Afg‘onistonda yuz berayotgan siyosiy o‘zgarishlar, xususan Tolibon harakatining hokimiyatga kelishi mintaqadagi kuchlar muvozanatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Bu jarayon Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan O‘zbekiston oldiga yangi xavfsizlik masalalari bilan bir qatorda, yangi geoiqtisodiy imkoniyatlarni ham yuzaga keltirdi. Afg‘oniston hududi orqali o‘tuvchi transport yo‘laklari, energetika loyihalari va savdo aloqalari O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasida muhim o‘rin tutmoqda.

Shu bilan birga, Afg‘onistondagi uzoq yillik beqarorlik terrorizm, diniy ekstremizm, narkotrafik va noqonuniy migratsiya kabi tahdidlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa O‘zbekistonning milliy xavfsizlik siyosatini shakllantirishda Afg‘oniston omilining muhimligini anglatadi. Boshqa tomondan esa, ushbu davlatning geostrategik joylashuvi O‘zbekiston uchun Janubiy Osiyo bozorlariga

chiqish, transport-logistika tarmoqlarini rivojlantirish va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo mintaqasida Afg‘oniston muhim ahamiyatga ega davlat hisoblanadi. Afg‘oniston davlati ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda muhim obyekt sifatida rol o‘ynaydi. Jumladan, Atif A. W. o‘zining tadqiqotlarida Afg‘onistonning strategik joylashuvini integratsiya uchun muhim omil sifatida baholaydi. Shuningdek, Afg‘onistonda Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi tranzit hudud sifatida ko‘rib, energetik loyihalar va savdo yo‘llari uchun keng imkoniyat ekanligini ta‘kidlaydi. Shu bilan birga, davlatdagi xavfsizlik muammolari, siyosiy beqarorlik kabi muammolar imkoniyatlarga chek qo‘yayotganini qayd etadi.

Narkotrafik va narkoiqtisodiyot muammolari nafaqat mintaqaviy balki global tahdid sifatida ko‘rilmog‘da. UNODC hisobotlariga ko‘ra, Afg‘oniston eng yirik hajmdagi opium ishlab chiqaruvchi davlat hisoblanadi. Hisobotlarda qayd etilishicha, siyosiy beqarorlik va korrupsiyaning avj olishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Afg‘onistonning geosiyosiy o‘rni, hamda Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo mintaqasidagi tutgan o‘rni kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. Asosiy e‘tibor Afg‘onistonning Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlaridan O‘zbekistonga strategik ta‘sirini o‘rganishga qaratildi. Ma‘lumotlar - ilmiy maqolalar, tahliliy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar materiallari asosida yig‘ildi.

Komparativ tahlil (qiyoslovchi tahlil) usuli orqali davlatning geostrategik o'rni va ahamiyatining umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Afg'onistonning geografik joylashuvi va O'zbekiston uchun strategik ahamiyati. Afg'oniston Janubiy Osiyoda joylashgan davlat bo'lib, bu davlatni "Osiyoning yuragi" yoki "quruqlik orqali bog'lovchi mamlakat" deb atashadi, chunki u oltita davlat bilan o'ralgan. U shimolda O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston bilan, g'arbda Balujiston, Siston va Xuroson orqali Eron bilan, janubi-sharqida Pokiston bilan, sharqning chekka hududida esa Xitoy bilan chegaradosh [1]. Mamlakatning bunday joylashuvi uning geosiyosiy rolini belgilaydi. Afg'oniston nafaqat transport va savdo yo'llarini bog'lovchi hudud, balki energetika va iqtisodiy loyihalar uchun ham muhim tranzit makon hisoblanadi. Shu bilan birga, u tarixan yirik davlatlar manfaatlarini to'qnashgan hudud bo'lib, ma'lum ma'noda "bufet zona" vazifasini ham bajargan. Natijada, uning geografik markaziyliigi bir tomondan iqtisodiy va strategik imkoniyatlar yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan siyosiy beqarorlik va tashqi ta'sirlar xavfini ham kuchaytirgan. Afg'oniston O'zbekiston bilan ham chegaradosh davlat bo'lganligi tufayli, O'zbekiston uchun ham strategik ahamiyatga ega davlat hisoblanadi. Eng avvalo, Afg'oniston O'zbekistonning janubiy qo'shnisi sifatida mintaqaviy xavfsizlik tizimida muhim o'rin tutadi. Ushbu davlatdagi siyosiy beqarorlik bevosita O'zbekiston chegaralariga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ekstremizm, terrorizm va narkotrafik kabi tahdidlar aynan Afg'oniston orqali Markaziy Osiyoga kirib kelish ehtimoli bor bo'lib, bu O'zbekiston uchun doimiy strategik e'tibor talab qiladigan yo'nalishdir.

So'nggi 20 yil davomida O'zbekiston hukumati Afg'onistonga nisbatan tinchlikparvar va muvozanatli siyosat yuritib kelmoqda. 2008-yilda NATONing Buxarest sammitida mamlakat prezidenti "3+6" kontakt guruhi tashkil etish tashabbusini ilgari surgan, biroq bu taklif yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmagan [2]. Ushbu taklif Tolibon hukumati davrida afg'onlararo muzokaralar uchun platforma yaratishga turtki bo'lgan. So'nggi yillarda O'zbekiston O'zining neytral siyosatini mustahkamlash hamda, inqirozga yuz tutgan qo'shni davlat bilan bog'liq bo'lgan diplomatik sa'y-harakatlarini kuchaytirdi.

Xavfsizlik omili: beqarorlikning O'zbekistonga ta'siri. Afg'onistondagi siyosiy va ijtimoiy barqarorlik O'zbekiston xavfsizligi bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston o'z xavfsizligini ta'minlash uchun Afg'onistonda barqaror hukumat mavjud bo'lishidan manfaatdor. Chunki Afg'onistondagi beqarorlik ekstremistik va radikal guruhlar uchun qulay sharoit yaratadi. Xususan, O'zbekiston Islomiy Harakati hamda ISIS kabi guruhlar mavjudligi O'zbekiston uchun jiddiy xavf sifatida qaraladi [2]. Bunday sharoitda O'zbekiston Islomiy Harakati yoki ISIS kabi tuzilmalar o'z faoliyatini tiklashi yoki kengaytirishi mumkin. Bu esa bevosita O'zbekiston milliy xavfsizligiga tahdid tug'diradi, chunki ushbu guruhlarining asosiy maqsadlaridan biri mintaqada beqarorlik yaratish va siyosiy tizimlarni zaiflashtirishdir.

Narkotrafik va transmilliy jinoyatchilik ta'siri. Bundan tashqari, O'zbekiston bilan bir qatorda boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga ham xavf soluvchi omillardan biri bu Afg'onistondan kirib keladigan narkotik moddalar savdosi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan olib borilgan o'rganishlar natijasiga ko'ra, giyohvand moddalarning savdosi asosiy notinchlikning sabablaridan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) 2016-yilgi hisobotiga ko'ra, noqonuniy afg'on afyun iqtisodiyotining taxminiy qiymati taxminan 2,8 milliard dollarni tashkil etadi, bu Afg'oniston umumiy YalMning 13 foizini tashkil qiladi [3].

Afg'onistondagi narkotik moddalar savdosi pul bilan bog'liq bo'lib, bunga ko'plab davlatlar jalb qilingan, shuning uchun, bu o'z navbatida O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Afg'onistonda ishlab chiqarilayotgan narkotik moddalarning Rossiya va Yevropaga yetkazilish yo'li Markaziy Osiyo orqali o'tadi [4]. Milliy xavfsizlik nuqtai nazaridan, O'zbekiston tranzit hudud sifatida transmilliy jinoyatchilik tarmoqlari faoliyatiga duch keladi. Narkotik moddalar oqimi bilan birga noqonuniy qurol savdosi, odam savdosi va boshqa kriminal faoliyat turlari ham kuchayishi mumkin. Bu esa davlatning chegara xavfsizligi tizimiga bosimni oshiradi.

Energetika va suv resurslari hamda ularningning strategik ta'siri. Bu sohalar Afg'oniston va O'zbekiston munosabatlaridagi strategik sohalar hisoblanadi. O'zbekistonda mavjud bo'lgan tranzit imkoniyatlari hamda energiya eksporti Afg'onistonga elektr energiyasini yetkazib berishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, suv resurslari ham Afg'oniston qishloq xo'jaligida muhim omillardan biridir. 2024-2025-yillarda suv va qishloq xo'jaligi bo'yicha bir qator kelishuvlar imzolandi. Ularda resurslarni birgalikda boshqarish, suvdan samarali foydalanish va chegara kanallarini tizimli boshqarish maqsad qilingan. Biroq suv masalalari murakkab bo'lib, qishloq xo'jaligi uchun suv ta'minoti ko'pincha mintaqaviy siyosiy qarorlarga bog'liq [5]. Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish konsepsiyasiga ko'ra, Bir nechta davlat hududidan oqib o'tuvchi suv resurslari ustidan samarali boshqaruv faqat hamkorlik, o'zaro ishonch va huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, Afg'oniston davlati bilan Amudaryo havzasidagi masala dolzarb bo'lib, davlatlar o'rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Afg'onistonning so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan siyosati, jumladan yangi kanallar qurilishi, suv taqsimotidagi mavjud muvozanatga ta'sir ko'rsatmoqda.

Global va mintaqaviy kuchlar raqobatining O'zbekistonga bilvosita ta'siri. Markaziy Osiyo davlatlarida ko'plab buyuk davlatlarning manfaatlarini kesishadi chunki, bu hududlar strategik jihatdan muhim hisoblanadi. Iqtisodiy yo'nalishda Xitoy bilan hamkorlikda transport va logistika tarmoqlari rivojlanmoqda. Rossiya bilan esa, energetika va mehnat migratsiyasi sohasida bog'liqlik kuzatilmoqda. Bu kuchli davlatlarning bilvosita ta'siri qilayotganini bildiradi. Xavfsizlik nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, Afg'onistondagi beqarorlik global kuchlar raqobatining muhim qismi hisoblanadi. UNODC hisobotiga ko'ra, 2023-yilda Afg'onistonda opiy ishlab chiqarish keskin kamayganiga qaramay, mavjud zahiralari va transit yo'llari orqali Markaziy Osiyoga narkotik oqimi saqlanib qolgan [6]. Buning natijasida O'zbekistonda chegaraviy xavfsizlik va transmilliy jinoyatchilik xavfi oshadi.

Xulosa va takliflar. Afg'onistonning O'zbekistonga geostrategik ta'siri xavfsizlik va geoiqtisodiyot yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Afg'oniston bir vaqtning o'zida O'zbekiston uchun ham xavf, ham imkoniyat manbasi bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni Afg'onistondagi siyosiy beqarorlik, transmilliy tahdidlar mintaqaviy xavfsizlik muammosini keltirib chiqaradi va natijada, O'zbekiston profilaktik choralarini doimo kuchaytirishi va nazoratda saqlashi talab etiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston tashqi siyosati bu davlat bilan aloqalarda muvozanatli yondashuv olib borishi muhimdir.

Birinchidan, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha kompleks yondashuv zarur, hamda monitorinf tizimlari joriy etilishi kerak.

Ikkinchidan, imkoniyatlardan to'liq foydalanish zarur. Trans-Afg'on temiryo'li orqali Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish strategik ahamiyatga ega.

Uchinchidan, Ta'lim, gumanitar yordam va boshqa loyihalar orqali ishonchli hamkorlik muhitini yaratish muhim

chunki, bu barqarorlikka erishishga yordam beradi. Bular orqali, Afg'oniston va O'zbekiston aloqalari yanada yaxshilanishi va uzoq muddatli barqarorlikka erishishi mumkin va natijada, xavfsizlik tahdidlarining oldi olinishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Atif, A. W. (2024). The Geopolitical Location of Afghanistan: Opportunities and Challenges in Relations with South and Central Asian Countries. *ATJSS*, 1(1), 58-66.
2. Nishonova, Z. (2023). Analysis Of Relations Between Uzbekistan And Afghanistan. *Journal of Modern Educational Achievements*, 10(1), 115-119.
3. Xudoyorov, H. X. O. G. L. (2024). Janubiy Osiyo Mintaqasi Barqarorligida Afg'oniston Omili. *XXI Asr: Fan va ta'lim masalalari (XXI vek: Voprosy nauki i obrazovaniya)*, 2(2), 447-458
4. Sherzod o'g'li, A. F. (2025). Markaziy Osiyo Va Rossiyaning Xavfsizlik Sohasidagi Istiqbollari. *Yangi O'zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnali*, 2(9), 225-230
5. Fayzullayev, A., & Umarov, F. O'zbekiston Va Afg'oniston Hamkorlik Munosabatlarining Yangi Bosqichi. *Green Economy and Development*, 3(10), 667963.
6. United Nations Office on Drugs and Crime. (2023). *Afghanistan Opium Survey 2023*. Vienna: UNODC.